

**BADIY ASARDA QISSANAVIS OBRAZI**

*Abduhamid XOLMURODOV, Navoiy davlat pedagogika  
instituti professori, filologiya fanlari doktori*

**IMAGE OF THE STORYTELLER IN THE  
WORK OF ART**

*Abduhamid KHOLMURODOV, Professor of the Navoi State  
Pedagogical Institute, doctor of philological sciences*

**ОБРАЗ РАССКАЗЧИКА В  
ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ**

*Абдухамид ХОЛМУРОДОВ, профессор Навоийского  
государственного педагогического института, доктор  
филологических наук*



[https://orcid.org/0009-0000-  
7572-4781](https://orcid.org/0009-0000-7572-4781)

e-mail:  
*farkhodnizomov22@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada realistik o'zbek qissachiligidagi sezilarli iz qoldirgan qissanavislari X.Do'stmuhammad, N.Eshonkul, S.Siyoyev kabi yozuvchilarning asarlariga munosabat bildirilgan. Shuningdek, qissanavis obraz har bir adabiy qahramonning ruhiy olamida yashashi oydinlashtirilgan. Mazkur muammolarni hal qilishda bir qator tadqiqodchilarning ilmiy mulohazalariga murojaat qilingan. Adabiyotshunoslik jihatidan mavzuga doir muhim tavsija va umumlashmalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** qissa, xarakter, janr, qissanavis, obraz, rais, rahbar, adabiyotshunos, qahramon, sintez.

**Annotation:** The article reflects the work of such writers as H. Dostmuhammad, N. Eshonkul, S. Siyoyev, who left a significant mark on the realistic Uzbek short story. It is also clarified that the image of the novelist lives in the spiritual world. every literary hero. When solving these problems, the names of a number of researchers are mentioned. In solving these problems, the scientific opinions of a number of researchers were addressed. In terms of literary studies, important recommendations and generalizations about the topic are presented.

**Keywords:** story, character, genre, author of stories, image, chairman, leader, literary critic, artesian, object

**Аннотация:** В статье отражено творчество таких писателей, как Х.Достмухаммад, Н.Эшонкул, С.Сиёев, оставивших значительный след в реалистической узбекской новелле. Также уточняется, что образ новеллиста живет в духовном мире каждого литературного героя. При решении этих задач упоминаются имена ряда исследователей. При решении этих проблем были учтены научные мнения ряда исследователей. С точки зрения литературоведения представлены важные рекомендации и обобщения по теме.

**Ключевые слова:** повесть, характер, жанр, автор рассказов, образ, председатель, лидер, литературовед, герой, синтез.

**KIRISH.** XX asrning 80-90-yillar o‘zbek qissachiligidagi yosh, zabardast adiblar kirib keldi. Ular realistik qissachiligidan faqat miqdoriy jihatdan boyishini emas, balki sifatiy jihatdan rivojlanishini ham ta’minladilar. X.Do’stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Bo’tayevlar ana shularning eng faol namoyandalari hisoblanadi.

X.Do’stmuhammadning “So‘roq”, “Hay-y, Gulshod, Gulish!.. yoxud quyiqlikloqcha qotillik”, “Oromkursi”, Sh.Bo’tayevning “Shamol o‘yini”, “Eski arava”, “Sho‘rodan qolgan odamlar” kabi qissalari hozirgi va yaqin o‘tmishimizdagi kishilar ma’naviy-axloqiy qiyofalarini, ularning turmushi hamda intilishlarini o‘ziga xos tarzda badiiy aks ettirishlari bilan alohida ajralib turadi.

O‘zining bir qator betakror hikoyalari bilan kitobxonlar e’tiborini qozongan N.Eshonqul kuchli ramziy va majoziy tasvir prinsiplariga amal qilib, “Tun panjaralari”, “Qora kitob” kabi qissalarini yaratdi. Ochig‘ini aytish kerak, N.Eshonqul modernizm tamoyillariga asoslangan holda ijod qilayotgan adiblardan. Yozuvchi bu urinishlari bilan o‘zbek qissachiligidagi yangi bir to‘lqin olib kirish yo‘lidan bormoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Ushbu maqolani tahlil etishda atoqli adabiyotshunos olimlar Vinogradov V., Baxtin M., Sulton I., Nosirov O., Karimov B. kabilarning nazariy qarashlari, internet saytlarida mavzuyimizga daxldor fikrlarga e’tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanan ilmiy ma’ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi. Hamda tahlil obyekti hisoblangan yozuvchilarning asarlariga murojaat etildi.

U o‘z qissalariga aniq mintaqasi yoki makonga daxldor kishilarni emas, balki, qissa qahramonlari uchun makon hamda zamonning farqi yo‘q. Bu qahramonlarning zimmasiga tushgan barcha kulfatlar, jabru jafoolar ramziy ma’noda umumiyligi ahaliyatga egaligi kishini hayratga soladi. Bizningcha, bunday holatning bosh sababi N.Eshonqul qissalaridagi qahramonlarning milliy ruhiyatiga nisbatan kuchli ta’siri bo‘lsa kerak. Agar u haqiqiy o‘zbekning xoh o‘tmishi, xoh hozirgi holati, kechinma va dardlarini, shodligu intilishlarini o‘z qahramonlari ruhiyatiga singdira olganida edi, uning asarlari hozirgi o‘zbek

qissachiligidagi eng yuksak namunasiga aylanib qolishi shubhasiz.

Qissa janri haqida gap ketganda, “qissanavis” obrazini ham chetda qoldirmaslik kerak. Chunki “qissanavis” obrazi har bir adabiy qahramonning ruhiyatida, qalbida yashaydi. Qissanavis obrazini ulardan ajratib, bo‘lmaydi. Masalan, biron-bir yirik asarda bir necha obrazlar ishtirok etadi. Yozuvchi ularning har biriga o‘zicha sayqal beradi. Ularni mukammallik darajasiga yetaklaydi. Shu o‘rinda yozuvchining o‘zi yaratgan badiiy asardagi obrazlarga yaxlit holda roviy yoki qissanavis obrazi bo‘lib shakllanadi. U jamiki badiiy qahramonlarni birlashtiradi. Va ayni paytda bu obrazlarni qalb sintezidan o‘tkazib kitobxon hukmiga havola etadi. Muammoni birinchilardan bo‘lib maxsus o‘rgangan yirik rus olimi V.V.Vinogradov hikoyanavis obrazini “asar mohiyatining jamlangan tarzda namoyon bo‘lishi” [3;118-bet], deb hisoblaydi.

### MUHOKAMALAR VA NATIJALAR.

Qissanavis obrazi muammolari, taniqli olimlar Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘sjonov, Naim Karimov, Umarali Normatov, Salohiddin Mamajonov, Sobir Mirvaliyev va boshqa bir qator tadqiqotchilarning ishlarida o‘z aksini topgan. Rus adabiyotshunosligida ushbu muammo akademik V.V.Vinogradov, M.Baxtin, M.P.Brandes, Yu.M.Lotman, B.O.Korman singari olimlarning ishlarida chuqr o‘rganilgan.

Qissanavis obrazi hamisha qahramonlar ichida bo‘ladi. Ularning butun xatti-harakatlarini kuzatadi, baho beradi. Ayni paytda xulosalar chiqaradi. Unda, eng avvalo, yozuvchining kechinmalari mujassam bo‘ladi. Shuningdek, qissa qahramonlari o‘rtasidagi o‘zaro kurash psixologik aspektida qissanavisning “o‘z-o‘zi bilan ichki kurashini” namoyon etadi [1;8-bet].

Iste’dodli yozuvchi Sa’dulla Siyoyevning “Otliq ayol” nomli qissasi bor. Biz qissada ijodkor shaxsining shu kabi holatlariga guvoh bo‘lamiz.

Qissa “Otliq ayol” deb nom berilishi bejiz emas. Unda mansabdor ayol va jamiyat muammolari o‘rtaga qo‘yiladi. Qissada aks ettirilgan va qayta shakllantirilgan voqealar o‘z badiiy ifodasini topgan. Uning bosh qahramoni Zumrad ismli go‘zal ayol. Yozuvchi qissanining dastlabki satrlarini kitobxonlarga uning go‘zal qiyofasini, shirin oilaviy hayotini chizib ko‘rsatishdan boshlaydi. “Zumrad

kerishib o‘rnidan turdi. Uzum zangiga ilingan to‘qima ko‘ylagini olib kiydi. Yalang oyoq hovliga tushdi. Quduqdan suv tortib yuvindi. Choy qo‘yib ichmoqchi bo‘ldi-yu, ko‘ngli tortmadi. “Dalada kolxozchi ayollar bilan nonushta qilarman”, deb ayvonga kirdi. Brezent etikchasini kiydi, boshiga ko‘k krepdeshin ro‘molini o‘rab, qo‘yniga daftarchasini oldi. O‘zini toshoynaga soldi. Oynada tabiatning bekam-u ko‘st, mukammal bir farishtasi nozlanib qarab turardi: oqi-oq, qizili-qizil bo‘lib tovlangan lo‘ppi yuz, xiyol chimirilgan payvasta qoshlar, go‘yo qora uchqun sachratib, tutab turgan jodu ko‘zlar-u shakarguftorlik uchungina yaratilgan qirmizi dudoqlar...

Zumrad o‘z qomatiga o‘zi mahliyo bo‘lib, nari-beri o‘girildi: “Narximiz qancha, akajon”, degandek ko‘z qisdi. Tilla tishlarini yaltiratib jilmaydi. Oynadan ayolning tabassumi o‘ziga ham yoqib ketdi” [4;221-bet].

Qissada qahramonning bir necha kundalik xotirotlari vositasida uning xarakteriga muayyan chizgilar beriladi. Shu bilan birga yozuvchining nigohi sobiq ittifoq jamiyatidagi boshqarish siyosati, mansabdorlararo munosabatlar, hali biror bir yozuvchi qalamga olmagan hayotning sirli, yopiq tomonlari tasvirlanadi. Qissada Zumrad shu qadar fidoyilik bilan ishlaydiki, uning bu holatidan shofyori Solijon, rais hayratlanadi. Zumrad jamoa xo‘jaligida mehnat qilayotgan ayollar, boshchorvoqning kimsasiz g‘arib ko‘rinishlari tasvirga olib kiriladi. Hisobsiz artezan quduqlarning yordamida chiqarilayotgan suv buloqlarning qurib qolishiga olib keldi. Xo‘jalik raisi Mirzahmad akaning qo‘l-oyog‘i ishlamay betob bo‘lib yotishi manzarani yanada g‘ariblashtiradi. Tasvir davrning obyektiv holatda ko‘rinishi bilan bog‘lanib ketadi. “Voy, bu komissiyalarning ko‘pligi! Aql o‘rgatadigan kimsalarning serobligi! Ularni ataylab o‘qitib, peshma-pesh qishloqlarga jo‘natib turadimi deyman...” [4;225-bet].

Zumrad o‘zi yashab turgan jamiyatning siyosiy boshqaruvi tizimiga tanqidiy baho beradi. U jamoa xo‘jaligiga rahbarlik qilar ekan, uzilgan olmalarning xaridorlarga o‘z vaqtida yetkazib berilmasligidagi nuqsonlarni ko‘radi.

Mirzaahmad aka og‘ir kasallikdan so‘ng vafot etadi. Raisning marosimiga xo‘jalik odamlaridan tortib viloyatdagi bilganlarning barchasi ishtirok etishadi. U bir umr odamlarga yaxshilik qilgan.

“Rahmatlik qanday odam edi?” -deb so‘ralganda: “Yaxshi odam edi”, -degan javob bo‘ladi.

Zumrad tuman rahbarlari bilan qabristonga ham boradi. Raisning uyiga kelguncha Zumradning yodiga Mirzaahmad akaning xalqparvarligi tushib ketadi. Ana shu xotiralarda ham jamiyat va shaxs munosabatlari yozuvchi tomonidan obyektiv baholanganligiga duch kelamiz. Bu o‘rinda yozuvchi nigohi va pozitsiyasi qahramon nafasi bilan birlashib ketadi va qissaga xos “lirizm” namoyon bo‘ladi [5;258-bet]. Gulbog‘ tuman rahbari Mavlon Isayevich Nasriddinov Zumrad xo‘jalik raisi bo‘lgandan so‘ng, tez-tez uchrashib turadigan bo‘lishdi. Ular orasidagi munosabat asta-sekinlik bilan fojialarga olib kela boshlaydi. Zumrad jamoa xo‘jaligida jonini jabborga berib ishlaydi. Nasriddinov esa, uni o‘zining shaxsiy tuzog‘iga ilintirish, Zumradning shirin oilaviy turmushini buzish payida bo‘ladi. Muallifning maqsadi tili va dili ayri kimsalarning tubanligini ochish. O‘sha davrlarda Nasriddinov singari rahbarlar jamiyatda to‘lib-toshib yotgan edi. Zumrad bilan raykomning dachasiga borib gurunglashib turganida noxush holat ro‘y beradi. “Zumrad noiloj qadahni ko‘tardi. Shu payt dahlizda gursillagan tovush eshitildi. Zumrad bilan Nasriddinov eshikka qarab qolishdi. Eshik zarb bilan ochildi-yu ostonada haykaldek bo‘lib... Yarash polvon ko‘rindi. Zumrad: “Voy!” deb qadahni yerga tashlab yubordi. Rangi bo‘zarib asta o‘rnidan turdi. Nasriddinov polvonga g‘azabnok tikilgancha, g‘o‘dayib o‘tiraverdi...” [4;265-bet].

Yarash polvon mana shunday kechirilmas voqeanning ustidan chiqadi. Yozuvchi Zumradning bu holatdagi ruhiy dunyosini ochishga shoshilmaydi. Aksincha, o‘zi bilan o‘zi olishayotgan Zumradning holati kitobxonha hozircha notanish bo‘lib qoladi.

Qissa tarkibidagi voqealar butun bir tizimni tashkil qiladi. “Avtor yaxlit asarni yaratgan ijodiy shaxs, u asar doirasida mustaqil hokimlikka ega. Uning ongi, ovozi, nuqtayi nazari bilvosita asar tarkibiy elementlarida aks etadi. Prozaik asarda avtor ongingin asosiy ifoda formalari qahramon hikoyachi, bayonchidir. Qahramon – bevosita nutq subyekti, asarda shaxsiy hayoti, tarjimayi holiga oid ma’lumotlar xarakterining barqaror belgilari bilan namoyon bo‘ladi. Qahramon o‘zini harakatda ko‘rsatadi. U ma’lum tarixiy davr hayotining konkret sohasiga

muvofig bo‘lgan insonning konkret individual obrazidir.

Hikoyachi – prozaik asarda bayon egasi, yozuvchining nutqiy samarasi... Hikoyachi – asarning psixologik va bayon markazi. Uning asarda tasvirlanilayotgan voqealarga munosabati shaxsiyatli, tuyg‘uli, faktlar va kishilarga yondoshish baholi subyektivdir. Hikoyachida avtorning ma’naviy shaxsiyatiga yaqinlik mavjud bo‘ladi. Biroq uni barcha hikoyachilarga bab-baravar taalluqli deb bo‘lmaydi. Chunki avtor ba’zan o‘zining ma’naviy shaxsiyatiga zid bo‘lgan hikoyachidan ham o‘zini o‘zi fosh etish maqsadida foydalanadi. Jumladan, asar bosh qahramoni – hikoyachi salbiy obraz sifatida yaratilgan asarlarda hikoyachida avtorning ma’naviy olamiga yaqinlik bor deb aytish mushkul” [2;118-119-betlar]. Adabiy qahramon voqealar rivojiga qarab o‘zgarib turadi.

Ko‘rinadiki, qissanavis va qahramon nutqida ham yozuvchi mahoratining o‘ziga xos qirralari alohida ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, “Otliq ayol” qissasida Zumradning ikkita sinfdosh do‘stilarining obrazlari yaratilgan. Birinchisi – Xolqo‘zi, kasbi jurnalist, u ocherk yozib Zumradning jamiyatda tutgan o‘rnini ulug‘lasa, ikkinchisi – Zebuniso o‘quvchilarni paxta yig‘imterimiga olib kelgan muallima. Yozuvchi o‘zi Zumradga aytolmagan fikrlarni shu obraz orqali ifodalaydi.

Yozuvchi Zebuniso obrazi orqali davr siyosatiga baho berib, bundan ijtimoiy turmush tasvirini berishda foydalanadi. Ushbu jarayonda davrning jarohatlari ochila boradi. Yozuvchi ko‘zlagan g‘oyasini ijodiy niyatini asar qahramonlari orqali ifodalaydi. Qissada siyosat qurbaniga aylangan ayollar misolida jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar qahramon nutqi orqali ochib beriladi. Adabiyotshunos M.Baxtin ta’biri bilan aytganda, “Endilikda tarix real tarix” emas, qissanavisning g‘oyaviy-fikriy tarixi sifatida namoyon bo‘ladi [1; 8-bet].

“Men pedagogman, lekin hayot mendan ko‘ra ming chandon zo‘rroq muallim ekan. Bilasanmi, biz ayollar baxtli bo‘lsak ham, baxtsiz bo‘lsak ham o‘zimiz sababchi ekanmiz. Emansipatsiya bizni ming yillik kishanlardan xalos qildi. Shu bilan birga, biz begona kishining ko‘ziga tik boqishni o‘rgandik.

Nazokat, hayo, andisha degan “eskilik sarqitlari” dan ham voz kechdik. Og‘zimizni katta ochib xoxolab kulamiz. Chekishni o‘rgandik, ichishni o‘rgandik. Sekin-asta yigitlarni yechintirib, kiyimlarini ustimidga yopishtirib olayapmiz. Ba’zan kiyimiga qarab, bu yigitmi, qizmi – bilib bo‘lmaydi. Yoniga borib, ho‘v, sen kimsan, erkakmisan, ayolmisan, nimasan deb so‘raging keladi. Biz hamma ishda erkaklar bilan bas boylashmoqchi bo‘ldik, ulardan qaerimiz kam deb o‘yladik...” [5;271-bet]. Davr o‘zgarishlarini yozuvchi ko‘pincha dialoglar orqali beradi. Yozuvchi ana shunday o‘rinlarda ham suhbatdoshlar ortida turib turmush haqiqatini ularning bahsi orqali tasvirlaydi.

**XULOSA.** Qissa kompozitsiyasi qissanavis obrazi vositasida butunlik, tizimlilik kasb etadi. S.Siyoyevning “Otliq ayol” qissasida Zumrad, “Besh kun mister bo‘lganim” qissasida Rahmatov, X.Sultonovning “Ko‘ngil ozodadur” qissasida G‘ulom obrazlari shunday vazifani bajaradi.

Qissanavis obrazi hamma qissalarda ham bir ko‘rinishda, bir xil vazifada namoyon bo‘lmaydi. Qissanavis obrazi tabiatan asarning umumiyy jihatlaridan kelib chiqadi. U ba’zi o‘rinlarda qissanavis obyekti, boshqa o‘rinda esa qissanavis subyekt ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. -М., Искусство, 1979, с.8.
2. Nosirov O‘. Avtor obrazi haqida.//Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. -T.: “Fan” nashriyoti, 1981. -B.118-119.
3. Виноградов Б.Б. О теории художественной речи, М., 1971. -C.118.
4. Siyoyev S. “Otliq ayol”. “Birovning o‘rni”. “Majnuntolning novdasi”. Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. -B.221.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. -T.: O‘qituvchi, 1980, 258-bet.
6. Siyoyev S. “Siz malika bo‘lib qolishingiz kerak”, “Otliq ayol”, Majnuntolning novdasi”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999. -B.265.